



“ZAKOVAT” INTELLEKTUAL KLUBI

>> [Bosh sahifa](#) >> [Yangiliklar](#) >> [Savollar](#) >> [Blits savollar](#) >> [Svoya igra](#) >>
[Savol yo'llash](#) <<

100 ta savol to'plami

1-savol: Germaniyada – perlon, Polshada – stilon, Shvetsiyada – grilon. Xo'sh bizdachi?

Javob: Kapron

2-savol: “Washington Post” gazetasi ma'lumotiga ko'ra, AQSh Milliy Xavfsizlik xizmati agentligi 1998 yil dekabrda mashhur o'yinchoqlardan biri bo'lgan “Fort-Mid” o'yinchog'ini ta'qiqlab qo'yadi. Aslida shahar ichida ta'qiqlangan predmetlar ro'yxatida shaxsiy fotoapparat, video va audio yozadigan qurilmalar mavjud. O'ylab ko'ringchi, siz o'yinchoqning qaysi xususiyatidan unumli foydalanib, ba'zi ma'lumotlarni saqlab qolishingiz mumkin.

Javob: Diktofonlik xususiyatidan. (“Fort-Mid” o'yinchog'i eshitgan ovozini takrorlaydi)

3-savol: Ba'zi versiyaga ko'ra otasi uni Yevpalam deb nomlagan. Buning ma'nosi “uddabaron qo'li” degani. Boshqa versiya bo'yicha esa uni Metin deb nomlagan. Ma'nosi “donishmand inson” degani. Ammo bizga uning boshqa ismi ma'lum. Undan ham ko'proq uning o'g'li mashhurroq. Menga uning o'g'lini ismini ayting.

Javob: Ikar

4-savol: O'rta asrlarda rus monarxistlari o'rtasida mashhur bir ibora bo'lgan: “Samoderjaviya monarxi hamma ishni qilishi mumkin, faqat bir ishdan boshqa” U nima qila olmagan?

Javob: Monarxlikdan voz kecha olmagan

5-savol: 1875 yil fransuz ximigi Lekok de Buabodran yangi kimyoviy element ochgan va uni Frantsiya sharafiga Galliya deb nomlagan. Ba'zi mutaxassislar fikricha uni nomni tanlashida umuman vatanparvarlik rol o'ynamagan, ko'proq u o'zini o'ylagan. Sizga savol, u bu nomni nega tanlagan edi?

Javob: LEKOK frantsuzcha “xo'roz” degani. Lotinchasiga esa xo'roz GALL.

6-savol: Arxeologlar dengiz ostidan harbiy kema topishadi. Bu kema 16 asrga tegishli bo‘lib, undan yaxshi saqlangan sandiq topiladi. Undagi predmetlar orasida miltiq, kamon va charm qo‘lqop chiqadi. Ajablanarlisi u yerdagi barcha qo‘lqoplar chap qo‘l uchun mo‘ljallangan edi. Ular chap qo‘lini nimadan himoya qilishgan?

Javob: Olovdan. O‘sha vaqtlardagi pilta miltiqlar xavfsiz bo‘lmagan.

7-savol: Badiiy filmlar vaqtida biz ko‘plab mashhur aktyorlarning o‘z ismi bilan filmda rol ijro etganini ko‘p guvohi bo‘lganmiz. Bir mashhur filmda birdaniga 6 ta aktyor xuddi shunday rolni ijro etishgan. Ulardan beshtasini sanayman: Tatyana Konyuxova, Georgiy Yumatov, Leonid Xaritonov, Pavel Rudakov, Valentin Nechaev.... Siz menga bular orasidagi oltinchi eng mashhurini ayting.

Javob: Innokentiy Smoktunovskiy

8-savol: Hammamizga ma‘lumki, Qadimgi Olimpiada o‘yinlarida sportchilar kiyimsiz musobaqalashgan. Keyinchalik sport kiyimlari katta biznesga aylana boshlagandan so‘ng bu odat yo‘qolib ketgan. Ammo bir sport turi vakillari o‘zlarida bu “holatni” saqlab qolishgan. Siz menga hech bo‘lmasa ulardan birining nomini ayting.

Javob: Istalgan gimnastlardan biri. “Gimnast” so‘zi yunonchadan “yalang‘och” deb tarjima qilinadi.

9-savol: Ko‘pchilik Amerikaliklar fikricha, bironta ayol BU ishni qilolmas ekan, shuning uchun ham Konstitutsiya ayollarga Prezident bo‘lishga imkoniyat bermas emish. Ko‘plab Amerikalik ayollarning fikricha, Konstitutsiyadagi qaysi band ularga xalaqit beradi?

Javob: Prezident yoshi 35 dan yuqori bo‘lishi kerak. Ayollar o‘zlarini 35 yoshdan katta deb tan ololmas ekan.

10-savol: Fransiyaning yirik reklama agentligi mutaxassisi Jak Segal shunday degan edi: “Bundan bir necha o‘n yil oldin o‘rtamiyona xavaskor rassom va yetuk reklama agentining uchrashganligini unutib bo‘lmaydi. Ular birgalikda butun dunyoni egallashga bir bahya qolgan”. Menga ularning ikkalasini ham ayting.

Javob: Gitler va Gibbels.

Izoh: Hammamizga ma‘lumki Gitler xavaskor rassom bo‘lgan. Gibbelsning asli kasbi esa reklama agenti edi.

11-savol: Keniyaning Nayrobi shaxridagi hayvonot bog‘idagi timsohlar bor basseyni yonida shunday yozuvlar bitilgan:

"Iltimos, timsohlarga narsa tashlamang. Aks xolda....." Marhamat qilib jumlaning to‘ldiring.

Javob: “Iltimos, timsohlarga narsa tashlamang. Aks xolda o‘zingiz olib chiqasiz”

12-savol: Yevropa Ittifoqiga kirib keladigan qalbaki maxsulotlarning foiz ko‘rsatkichi bo‘yicha

1-o'rin: Segareta maxsulotlari

2-o'rin: Kiyim-kechak

Xo'sh 3-o'rinda qaysi maxsulot turadi?

Javob: Qaroqchilar tomonidan tayyorlangan soxta CD, VCD va DVD diskleri

13-savol: Qoraqalpog'istondan Toshkent viloyatini ayirsak qaysi viloyat qoladi? Izohini ham ayting.

Javob: Sirdaryo viloyati

Izoh: Qoraqalpog'istonning davlat avtomobil raqami 23. Toshkent viloyatiniki 11. Ayirsak 12 qoladi. Bu Sirdaryoning nomeri.

14-savol: AQSHlik stomatolog Djozef Berkovskining fikricha bu ayolning yuz tuzilishi insonlar uchun eng tipik ko'rinishi ekan. Bunday fikrga kelishiga unga u ayolning oldingi tishlari sabab bo'lgan ekan. Savol, bu dunyoga mashhur ayol kim?

Javob: Mona Liza - Jakonda

15-savol: 2006 yil Angliyada maktab o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma "Kimni Buyuk Britaniya Bosh vaziri bo'lishini xoxlaysiz degan savolga eng ko'p javob manchester Yunayted jamoasi o'yinchisi Ueyn Rooney oladi.

Ikkinchi o'rinni egallagan inson real shaxs bo'lmasa u kim?

Javob: Bu butun dunyo bolalarini qalbidan joy egallagan GARRY POTTER

16-savol: AQShda haydovchilarga mo'ljallangan kitoblar chiqariladi. Lekin bu kitoblar yo'lda ketoyatgan haydovchiga xalaqit bermaydi. Ular qanday kitoblar?

Javob: Ular maxsus audiokassetalarga yozilgan kitoblar. Haydovchilar ularni o'qimaydi balki eshitadi.

17-savol: Dastlab ikkita osmonga qaragan projektorlar yonadi, so'ngra yana ikkitasi yonib oltinrang raqamlar va so'zlarni yoritadi.

Gap qaysi mashhur kompaniya emblemasi haqida ketmoqda?

Javob: 20 asr Fox studiyasi - XX century FOX

18-savol: 1898 yili Ispaniya AQShdan mag'lubiyatga uchragandan so'ng Kubaga bo'lgan xukmronligidan voz kechishi va orolni tark etishi kerak edi. Lekin ular Kubani tark etishdan oldin o'zlari bilan ispaniya-amerika madaniyatiga taaluqli katta qimmatga ega (balki uncha katta emasdir) bo'lgan tarixiy yodgorlikni, ya'ni bir shaxsning tobutini Sevilyadagi soborga ko'chirib ketishini aytishadi. Bu kim edi?

Javob: Xristofor Kolumb

19-savol: Donetsklik shifokor Andrey Mazur o'zining Kesha laqabli to'tiqushiga 3 xil tilda bir

necha soʻz va raqmdan iborat boʻlgan bir jumlani yodlatgan. U har doim bu jumlani takrorlashga oʻzining toʻtiqushini oʻrgatgan. Bir kun kelib buni foydasi tegib qolishiga Mazur ishonadi. Savol quyidagicha, u toʻtiqushiga bir necha soʻz va raqamdan iborat boʻlgan qanday jumlani yodlatgan?
Javob: U toʻtiqushiga oʻzining uy adresini yodlatgan. Agarda toʻtisi yoʻqolib qolsa topib olgan odamlar unga oson qaytarib olib kelishi uchun.

20-savol: Shtutgardda noodatiy antiqa darslik chop etildi. Bu darslikni oʻqish vaqtida oʻquvchilar oʻzlarini oʻqituvchi oʻrniga qoʻyib koʻrishlari va hatto darslik chop etuvchilarga baho qoʻyishlari ham mumkin. Siz menga 1 daqiqadan keyin, ushbu darslikning boshqalaridan farqli jixatini ayting.

Javob: Bu darslik atayin xatolar bilan chop etilgan.

21-savol: Mallarang boʻyoq, yaʼni sepiya, xozir asosan sintetik(sunʼiy) yoʻl bilan olinadi. Ammo tabiiy boʻyoq ancha taniqroq va sifatliroq. Bu boʻyoq tabiiy usulda bir jonzotdan olinadi. Siz uni topishingiz uchun mashhur bir musobaqani esga olishingiz kifoya. Menga oʻsha boʻyoqning tabiiy manbasini yozib bering.

Javob: Karakatitsa. (“Qora Karakatitsa” Kapitan Vrungel kemasi)

22-savol: FIAT, PEJO, RENO, SHEVROLE. Bu soʻzlarni avtomobil markalari ekanligidan tashqari ham bir umumiylik birlashtirib turibdi. Siz menga bu **soʻzlardagi** oʻsha umumiylikni topib aytasiz.

Javob: Oxirgi harfi “T” bilan tugaydi. (FIAT, PEGOUT, RENAULT, CHEVROLET)

23-savol: Dunyoda juda koʻplab dori xillari mavjud. Ularning funksiyasi ham xar xil. Xususan, Bir qancha dorilar qon taʼminotini yaxshilashga xizmat qilar ekan. Yaʼni ular qon bilan yaxshi toʻyingan hujayra va toʻqimalardan qon donachalarini olib, ularni kamqon boʻlgan hujayra va toʻqimalarga yetkazib berar ekan. Endi savol quyidagicha, shifokorlar bunday funksiyali dorilar turkumini hazillashib qanday nomlashadi?

Javob: Robin Gud

24-savol: (Savolni iloji boʻlsa yozib oling) Hududi kattaligi jihatidan – 110 oʻrin, aholi soni boʻyicha – 73-oʻrin, Xalqaro savdo hajmi boʻyicha – 15-oʻrin, Valyuta zahirasi boʻyicha – 6-oʻrin, aholisining kishi boshiga daromadi boʻyicha – 4-oʻrin. Va faqatgina travmatizm darajasiga koʻra dunyoda 1-oʻrin. Siz bu qaysi davlat ekanligini yozib bering.

Javob: Shveytsariya

25-savol: Qoʻlingizdagi qogʻozda inglizcha almost soʻzi yozilgan. Bu soʻz ingliz tilshunosligida eng uzun soʻz hisoblanar ekan. Albatta bir shartga koʻra. Oʻsha shartga rioya qilib bundan uzun maʼnoli soʻz yasab boʻlmas ekan. Siz harflarga yaxshilab eʼtibor bergan holda menga oʻsha shartni yozib bering.

Javob: Harflarni alfavitdagi ketma-ketligida yozish.

26-savol: Vatikanda joylashgan mashhur Avliyo Pyotr sobori ajoyib arxitektura mo'jizasi bilan qurilgan ekan. Uning gumbazi o'rtasida dumaloq teshik bor. Bu joydan soborga quyosh nuri tushib turadi. Ammo, qanchalik g'alati tuyilmasin, u yerdan bironta ham yomg'ir yoki qor tomchisi ichkariga tushmas ekan. Bunga sabab nima?

Javob: Sababi, u teshikdan doimiy ravishda issiq havo chiqib turadi va u yomg'ir va qor tomchisini urib qaytaradi yoki bug'lantirib yuboradi.

27-savol: Uni tekshirish natijasida har xil diagnozlar qo'yilgan:

Mikroxirurglar Kurte va Grippo tananing o'ng qismi atrofeyasi deb tashxis qo'ygan. Doktor Bent Kristianson faqat yuzi falaj bo'lgan deb hisoblaydi. Doktor Nakamura esa unda astma borligini aniqlagan. 1961 yil Leo Valla kuchli texnologiyalar asosida tekshirib, uni – mongoloid irqiga mansub degan xulosaga kelgan. 1 daqiqadan keyin, siz menga ushbu olimlarning “mijozini” yozib bering.

Javob: Mona Liza

28-savol: Yaqinda TNT kanali orqali efirga uzatilgan “Taksi” ko'rsatuvining 1 sonida “Qiyin savollar” toifasi bo'yicha berilgan savoldan na'muna:

Savol quyidagicha: “Ishonish qiyin bo'lsa ham uning ko'zi ko'rmas bo'lgan ekan. Bu to'g'rimi?” Yo'lovchilar esa uzoq o'ylab “Ha” deb javob berishdi. Shunda boshlovchi ham “U qanaqasiga ko'r bo'lishi mumkin?” deb javob noto'g'riligini e'tirof etdi. Agar savolda aytilgan shaxsning millati yapon bo'lsa, unda menga uning to'liq ismini va kasbini ayting.

Javob: Akiro Kurasava, rejissor

29-savol: Shveysariyada nodir va eski kitoblar sotiluvchi magazin mavjud. (bukinistlar magazini) Uning boshqalaridan farqli tomoni kitoblar og'irligiga qarab sotiladi va narxlanadi. Siz endi menga aytingchi, xaridorlar qanday mahsulotlarni bu magazindan chegirma asosida xarid qilishi mumkin?

Javob: She'riy yoki poetik kitoblarni

30-savol: Qaysi qurol o'z nomini inglizcha “aylantirmoq” so'zidan olgan?

Javob: Revolver

31-savol: Xitoyda u boylik ramzi, Misrda o'lim va ruh ramzi sifatida qarashgan. Gretsiyada esa uni o'lchov asboblari tasvirlashgan va u savdoda halollik belgisi bo'lgan. Xo'sh, u xozir nimaning ramzi?

Javob: CHGK (Boyug'li)

32-savol: Qilingan ixtirolarning asosiy amaliy maqsadi ko'pincha tor doirada bo'ladi. Masalan:

Xronometr ixtiro qilinganda dengizchilar faqat aniq uzoqlikni bilish uchun foydalanishgan. Xuddi shunga o'xshab qanday maqsad uchun ingliz shifokori Jon Flouer sekundni ko'rsatuvchi strelka ixtiro qilgan?

Javob: Pulsni o'lchash uchun

33-savol: Uni gultoji, belbog'chasi, korpusi va tomog'i bor. Uni ichki bosimi 1 million 700 ming paskaldan past bo'lmasligi kerak. U nima? Aniq javobni qabul qilaman

Javob: Shampan vinosi butilkasi (uning ichki bosimi yetarli bo'lmasa otilmaydi)

34-savol: Ancha oldin Braziliya ekranlarida yangi "Bosh inspektor" nomli teleserial namoyish etilgan. Siz menga bu serial qaysi rus asari asosida yaratilganini ayting

Javob: Gogolning "REVIZOR" asari. O'sha mashhur yolg'onchi Xlestakov haqida.

35-savol: Shveysariyalik olim Jan Jak Babel yillarni hisoblab chiqib, shunday xulosaga kelibdi. Mil. avv. 3500-yili va 292-yili odamzod usiz yashagan ekan. Nimasiz?

Javob: urushlarsiz. Qolgan hamma yili urushlar bo'lgan ekan

36-savol: Bu sportga 1845 yili AQSHlik Aleksandr Kartrayt asos solgan. O'yinda 9 ishtirokchi, 9 urinish va maydon tomonlari 90 futdan bo'ladi. 107 sm.li atributi ham bor. Bu qaysi sport turi.

Javob: BEYSBOL 107 sm. Bu beysbol tayog'ining - bita ning uzunligi

37-savol: Rossiyada o'tkazilgan so'rovnomada rus xalqining 42% bu davlatlarni 1 ta emas, aloxida-aloxida davlat deb xisoblar ekan. Qaysi davlatni?

Javob: Gollandiya-Niderlandiya

38-savol: Blits. Ya'ni men 3 ta savol beraman. Uchalasiga ham to'g'ri javob bersangiz ochko xisoblanadi.

1) Bu xarf deyarli dunyoning barcha alfavitlarida 1 xil yozilishi bilan rekord o'rnatgan. Bu qaysi xarf?

2) Ginnesga kiritilgan dunyodagi eng qisqa familiya?

3) O'zDEU korxonasida 1-ishlab chiqarilgan avtomobil?

Javoblar:

1) O

2) I (Xitoycha familiya. Bor yo'g'i 1 xarfdan iborat)

3) Damas

39-savol: Taysonning Xolifildga nisbatan qilgan ishini bir o'zbek san'atkori ham bajargan. Gap qanday ish va qaysi san'atkor haqida ketmoqda?

Javob: Ozodbek Nazarbekov. Gap quloq tishlash haqida ketmoqda.

40-savol: Bu jonzot 600.000 yil oldin Osiyoning janubi-g'arbida paydo bo'lgan. Yevropaga salb yurishlari vaqtida kelib qolgan. Xozir ularga qarshi kurash 4 marta oshgan. Qaysi jonzot haqida gap ketmoqda.

Javob: kalamush

41-savol: J.Koreyada turmush qurishda bir cheklov bor ekan. Agar Yigit va qizda bir narsa bir xil bo'lsa ularning turmush qurishi ta'qiqlanadi. Nima bir xil bo'lsa?

Javob: familiya

42-savol: London shaxrida XVIII asrda qilingan bir qaror xatlarni egalariga adashmay olib borishdagi muammoni bartaraf etdi. Savol, qanday qaror qabul qilingan?

Javob: uylarni raqamlash. Undan oldin uylar raqamlanmagan va xatlar noto'g'ri manzilga borar edi.

43-savol: Savol juda ham qisqa. Diego, Manfrid va Sid qaysi "davrdan" do'stlashadi?

Javob: "Muzlik davri"da ("Ice Age") Mashxur multfilm qaxramonlari haqida gap ketayotgan edi.

44-savol: Odamning bir tomonida ularning soni 150-200, ikkinchi tomonda esa 50-100 ta bo'ladi. Ularning xar biri o'rtacha 150 kun yashaydi. Gap nima haqida ketmoqda?

Javob: kiprik

45-savol: "640 kilobayt hammaga yetishi kerak". 1981 yil aytilgan bu gaplar kimga tegishli?

Javob: Bill Geys

46-savol: Kembridjda matematikadan ma'lum bir bahoni olgan talabaga yog'och qoshiq "sovg'a" qilinadi. Savol, qanday baho olgan talabaga yog'och qoshiq beriladi?

Javob: eng yomon baho olgan talabaga

47-savol: Titsian - "Misrga sayohat" - \$ 7 mln – 1995 y;

Uilyam Terner - "Soya va sharpa" - \$ 7 mln – 1994 y;

Rembrand - "Dengizda töfon" – bebaho – 1990 y

Bularni bog'liqligi nimada?

Javob: Bular o'g'irlab ketilgan va xozirgacha topilmagan eng mashhur san'at asarlari edi.

48-savol: Eng birinchi uning yorug'ligi ko'rinadi. So'ng ovozi eshitiladi. So'ng shamolini xis qilasiz. Ana undan keyingina o'zi kirib keladi. Gap nima haqida ketmoqda?

Javob: Metro

Izoh: qolgan javoblarga savoldagi bir so'z to'g'ri kelmaydi. Ya'ni "kirib keladi". M-n: kechqurun kelayotgan avtomobil hech qayerga kirib kelmaydi

49-savol: Undan qancha olsangiz kattalashadi, qancha qo'shsangiz kichrayadi. Nima u?

Javob: O'ra

50-savol: Quyidagi harflarga e'tibor bering:

1-B;

2-I;

3-U;

4-T;

5-B;

Siz qolgan beshta harfni yozib bering.

Javob: 6-O; 7-Y; 8-S; 9-T; 10-O'

Izoh: Bir, Ikki, Uch, To'rt, Besh, Olti, Yetti, Sakkiz, To'qqiz, O'n soz'larining bosh harfi

51-savol: Bir podshoh qadimda oshpazlar tanlovini o'tkazgan. U oshpazlarga quyidagicha shart qo'ygan: "Siz shunday bir ovqat pishiringki, boshida 1 chelak tuz soling, pishayotganda 1 chelak tuz soling, va men yana unga tuz sepib yey." U qaysi ovqatni nazarda tutgan?

Javob: Qaynatilgan tuxum

Izoh: Tuxum javobi ham qabul qilinadi

52-savol: Uni qora, yashil, qizil, sariq turlari bor. U deyarli barcha xonadonda mavjud. O'zbekistonda uni qora va yashil turlarini ko'p iste'mol qilishadi.

Javob: Choy

53-savol: U qush o'z qanotlari yordamida suv tagida suza oladi. Tezligi esa 10 m/s. Eng qizig'i u qush shuncha tez suzsa ham ucha olmaydi. U qaysi qush?

Javob: Pingvin

54-savol: Mercedes kompaniyasi yangi rusumdagi jamoat avtobuslarni chiqara boshladi. Uning salonida maxsus tablo o'rnatilgan bo'lib, unda 3 raqam yo'lovchilarga ko'rsatilib turadi. 1. Aniq vaqt – ya'ni soat

2. Salondagi harorat – ya'ni temperatura.

Xo'sh 3-raqam nimani ko'rsatib turadi?

Javob: Avtobus tezligini (spidometr)

55-savol: 2 yigitdan tashkil topgan guruhning nomi o'z ustozlari guruhining nomidan 1 harfga farq qiladi. Bu qaysi estrada guruhi?

Javob: Bojalar

56-savol: U dunyoda 3996 ta. Har yili ularning 14 tasi yo'qolib ketmoqda. Savol gap nima haqida ketmoqda?

Javob: Dunyo tillari

57-savol: Angliyada “S”, AQShda “U”. Xo’sh Toshkentdachi?

Javob: M (metro haqida ketmoqda. “S” – subway, “U” - underground)

58-savol: O’zbekiston, Urugvay, BAA, AQSh, Ukraina, Uganda. Bu davlatlarni ingliz tilini ishlatgan xolda bog’kiqligini toping.

Javob: Hammasi ingliz tilida “U” harfi bilan boshlanadi.

59-savol: Buyuk Britaniyada oldin u 18 yoshga to’lmaganlarga, 60 yoshdan oshganlarga, homilador ayollarga berilmasdi. Xozir esa umuman yo’qolgan. U nima?

Javob: O’lim jazosi

60-savol: Filipp Morris kompaniyasi o’z xodimlarining 40% iga aynan bir oyda mehnat ta’tili berar ekan. Sabab bu oyda savdo hajmi keskin kamayarkan. Qaysi oyda?

Javob: ramazon oyida (bu firma tamaki mahsulotlari ishlab chiqaradi)

61-savol: Belaruslar uni qadimda Lelya, Syotsya, Jiten va Zyuzya deb atashgan. Ular hech qachon birga yig’ilishmagan va o’z navbatini o’zgartirishmagan. Biz xozir ularni o’zbekchada njima deb ataymiz?

Javob: Bahor, yoz, kuz, qish

62-savol: Diqqatni jamlaydigan savol. Leonardo Da Vinchi chizgan Florensiyalik bir savdogarning xotini suratida u ayol chap qo’lida nimani ushlab turibdi?

Javob: o’ng qo’lini

63-savol: Mashhur Encarta-98 ensiklopediyasida “Mashhur juftliklar” katalogi mavjud. Bu katalogdan Romeo va Julyetta, Pi’er va Mariya Kyuri, Aka-uka Raytlar, Ishoq Rabin va Yosir Arofat kabi maqolalar o’rin olgan. Savol, bu katalogdagi eng birinchi maqola qaysi juftlik haqida?

Javob: Adam va Yeva

64-savol: Tailand qonunlariga ko’ra pul va tangalarni oyoq bilan bosish mumkin emas. Bunday ishni qilgan shaxslarga jarima solinadi. Bu qonun o’ziga xos chuqur ma’noga ega. Savol nima uchun Tailandda pul va tangalarni oyoq bilan bosish mumkin emas?

Javob: Pul va tangalarga Tailand qirolining surati tushurilgan

65-savol: 2002 yil Angola hayvonot bog’idan Botsvanaga 200 ta fil, tuyaqush, maymun, sher, antilopa, zebra, jirafa, to’tiqush, timsoh kabi hayvonlar kemada olib kelindi. Sizga savol, bu operatsiya qanday nomlanagan?

Javob: “Nuh kemasi”

66-savol: Akatsiya barglari tanin zaharli moddasini ishlab chiqaradi. Odatda barglarda uning miqdori juda kam bo'ladi, lekin agar bu yoki xatto qo'shni daraxt barglarining soni me'yordan kamayib ketsa, barglardagi tanin miqdori keskin oshib ketadi. Nima uchun bunday bo'ladi?

Javob: Ushbu barglarni yeyayotgan antilopalarni zaharlash uchun

Izoh: Shundan keyin ular barglarni yemay qo'yishadi va tabiiyki, akatsiya o'z barglarining sonini me'yorigacha tiklab oladi

67-savol: Odatda qadimgi yunonlar bosh kiyimsiz yurishgan. Lekin ba'zida ular boshlariga atayin qalpoq kiyib yurishgan. Qanday holatlarda ular bu ishni qilishgan?

Javob: Agarda ular kasal bo'lsalar

Izoh: Shunday yo'l bilan ular o'zlarini betobliklarini atrofdagilarga ko'rsatishgan

68-savol: U har safar boshini pastga tushirganda qon bosimining keskin tushib ketishi xisobiga u hushini yo'qotishi kerak edi. Lekin bunday bo'lmaydi: maxsus mayda qon tomirlari to'ri yordam beradi. Uni ayting.

Javob: Jirafa

69-savol: Armaniston va Eronda yashovchi yazidlar – o'ziga xos dinning tarafdorlari hisoblanishadi. Ularning dini zardo'shtiylik diniga borib taqaladi, biroq nasroniylik va islomning ta'siriga uchragan. Yazidlar turmushida ta'qiqlar ko'p. Ular xo'roz, g'azol, baliq go'shti, qovoqni yeya olmaydilar. Ularga yo'talish, tupurish, xushtak chalish, chanqovuz va tor chalish, ko'k rangdagi kiyimlarni kiyish mumkin emas. Yazidlar birinchi bo'g'inida "sh", ikkinchi bo'g'inida esa "t" tovushlari bo'lgan so'zlarni aytish mumkin emas. Nima uchun ular bunday so'zlardan qo'rqadilar?

Javob: Ular "shayton" so'ziga o'xshagani uchun

70-savol: 1853 yil tashkil etilgan ushbu kompaniyaning eng oxirgi ishlab chiqarilgan mahsulotida balandlikni o'lchash qurilmasi, kompas, barometr, termometr kabi qo'shimcha qurilmalari bor. Uning asosiy qurilmasining vazifasi nima?

Javob: Vaqtni ko'rsatish

Izoh: Gap "TISSOT" kompaniyasi soatlari haqida bormoqda

71-savol: Britaniyalik haykaltarosh Entoni Gormli cho'yandan inson figuralarini yasash bilan shug'ullanadi. Uning eng yaxshi haykallari Britaniyaning ko'pgina shahrlarini bezab turibdi. U o'zining cho'yan figuralarini ko'pincha bir insonga o'xshatib yasaydi. Siz menga u insonning kim ekanligini emas, balki uning kasbini ayting.

Javob: Haykaltarosh

Izoh: U o'z haykallarini o'zidan olib yasaydi

72-savol: Unga anchadan buyon haykal o'rnatish niyatida edilar, lekin buning hech uddasidan chiqa olmayotgan edilar. Lekin 1999 yil Yekaterinburgda nihoyat unga dunyodagi birinchi haykal yodgorlik o'rnatildi. Bronzadan quyilgan unchalik katta bo'lmagan postamentda faqatgina bir juft yalang oyoq izi turibdi. Bu haykal kimga o'rnatilgan?

Javob: G.Uelsning "Ko'rinmas odam"iga

73-savol: Dastlab Napoleon I o'z jasoratini abadiylashtirish uchun Triumfal arkasini qurdirmoqchi emas edi. U o'sha yerda bir hayvonning haykalini o'rnatmoqchi bo'lgan. Chunki bu hayvonlarni ko'rganida u hayratga tushar edi. Lekin ushbu maqsad amalga oshmadi. Baribir Triumfal arka qurildi. U qaysi hayvonning haykalini o'rnatmoqchi edi?

Javob: Fil

74-savol: Frantsuz adabiyotining klassigi Onore de Balzak o'zining bir qo'llanmasida "Erkak kishi o'zining o'sha narsasiga qarab hurmat topadi – bu uning o'zi, buning yordamida u o'zining asl ko'rinishini berkitadi, bu narsada uning aqli namoyon bo'ladi" degan. Agar "Zakovat" bilimdonlari bir necha yil avval u narsadan voz kechgan bo'lsa, u nima bo'lishi mumkin?

Javob: Galstuk

Izoh: "Zakovat" bilimdonlari o'yinlarda anchadan buyon galstuk emas kapalaknusxa (babochka) taqishmoqda.

75-savol: Ushbu mahsulotning reklamalaridan birida unga shunday ta'rif berilgan: Unga musiqiy asarlar bag'ishlangan, uni to'lov vositasi sifatida ishlatilgan, uning yordamida sevgi izhori qilishgan, u turli dindagi insonlarni yaqinlashtirishga yordam bergan, uni ko'pgina illatlarga qarshi dori sifatida yozib berishgan". Bu qaysi mahsulotning reklamasi?

Javob: Kofe

Izoh: Gap NESCAFE kofesi haqida bormoqda

76-savol: Malayziyada "Sen qayerga ketyapsan?" deyishadi, bu savolga "Aylangani" deb javob berishadi. Yevrey "Sizga tinchlik" desa, fors "Quvnoq bo'l" deydi, Grenlandiyaliklar esa "Yaxshi ob-havo" deyishadi. Biz bunday holatda nima deymiz?

Javob: Assalomu Alaykum-Vaalaykum Assalom

77-savol: Kalamushlar bilasiz har doim insonga zarar yetkazib kelgan. Lekin yaqinda Tanzaniyada ushbu hayvonlarga yangi bir vazifani o'rgatishdi va ular o'z ishlarini juda yaxshi bajara olishlari mumkinligini isbotlashmoqda va inson kasbdoshlaridan farqli o'laroq hattoki bir marta ham xato qilishmayapti. Ularni qaysi kasbga o'rgatishgan?

Javob: Sapyor

78-savol: XVI asr ispan yozuvchisi Fransisko Kavedo-i-Vilegos o'z asarlaridan birida quyidagicha fikrni aytadi:

“Sinor Dinero shubhasiz o’ ta qudratlidir”

Kavedo “Sinor Dinero” deganda kimni nazarda tutgan?

Javob: Pul (Dinor)

79-savol: Rivoyatlarga ko’ ra, Alloh Odamatoni yaratish uchun farishtalarni yerdan tuproq olib kelishga yuboradi. Yer qarshilik ko’ rsatadi va farishtalar undan tuproq olishmaydi. Bu ishni faqat ugina bajarganligi sababli, u ustun turuvchi deb hisoblanadi. Savol, nimadan ustun turuvchi?

Javob: O’ limdan

Izoh: Bu Azroil farishta edi

80-savol: Bu xalq o’ zini inuit deb ataydilar, hammasi bo’ lib ularning soni 115 ming kishini tashkil etadi. Bizda bu xalqning nomini xatto yosh bolalar ham yaxshi bilishadi. Savol bu qaysi xalq?

Javob: Eskimoslar

81-savol: 1996-yilning Fevral oyida "USA Today" degan gazeta bir insonni portretini "Insoniyat uchun turib bera oladimi?" degan sarlavha bilan bosib chiqardi. Savol, kimning portreti chop etilgan edi?

Javob: Garri Kasparov (U o’ sha yili kompyuter bilan shaxmat o’ ynashi kerak edi)

82-savol: Bu kompaniya Tayota, Adidas, Microsoft kabi uzoq tarihg ega bo’ lmasada dunyo bozorining 70% ini egalladi. U faoliyatini 15000 dan ortiq ishchi yordamida 115 tilda va hozirga kelib 8 mlrd. hamkor bilan olib boradi. Uning mahsuloti butun sayyorani ko’ rishga yordam beradi. Qaysi kompaniya to’ g’ risida gap ketayapti?

Javob: Google

83-savol: Stiven Frayning bir hazili bor, 50 yoshda vafot etgan Gabriel, o’ zini 122 yoshda deb hisoblagan. Savol, Gabrielning familiyasi nima edi?

Javob: Faringeyt (Faringeyt shkalasi bo’ yicha 50° Selsiy temperaturasi 122° ga teng bo’ ladi)

84-savol: Fransuz yozuvchisi Viktor Gyugo, bir kitob yozdi va ingliz tiliga tarjima qildirib Britaniyaga sotuvga qo’ ydi, biroz vaqt o’ tgach, sotuv qanday ketayotganini tekshirish maqsadida kitob sotuvchiga xat yozdi va o’ z xatida sotuvchining intellektual salohiyatini ham tekshirib ko’ rmoqchi bo’ ldi, xatni kod orqali yozdi, shundan keyin kitob sotuvchi ham Viktor Gyugodan qolishmagan holda, kitobning juda yaxshi sotilayotganini aytib javobini kodli tarzda qaytardi, uning xati birgina "!" belgisidan iborat edi. Viktor Gyugoning xati qanday bo’ lgan?

Javob: ?

85-savol: Ushbu mashxur qo’ shiq 1992 yil dunyo yuzini ko’ rdi, kompozitori Toni Britten ismli shaxs bo’ lgan bu qo’ shiq Londondagi avliyo Martin cherkovi xori tomonidan kuylangan.

Qo‘shiq matni 3 xil tilda (ingliz, nemis ,frantsuz) yozilgan. Mazkur qo‘shiqda siz “eng kuchlilar”, “buyuk voqea”, “hammasi erkaklar” kabi so‘zlarni eshitishingiz mumkin. Gap qaysi qo‘shiq haqida ketmoqda?

Javob: Yevropa Chempionlar Ligasi gimni

86-savol: Frantsiyada Stendal davrida ushbu protsess boshlanishidan oldin 3ta sham yoqib qo‘yilgan va bu jarayon ushbu shamlar o‘chguncha davom etgan.Hozirda bizda ham ushbu jarayonning nihoyasiga yetishi 3 soni bilan bog‘liq. Gap qanday jarayon to‘g‘risida ketmoqda?

Javob: Auktsion (bolg‘achani 3 marotaba zarb bilan urish orqali tugatiladi)

87-savol: O‘zbekiston Respublikasida u ko‘pi bilan 45 gradus burchak ostida va yerdan kamida 2,5 metr balandlikda turishi kerak. U nima?

Javob: O‘zbekiston bayrog‘i.(Bayrog‘ to‘g‘risidagi qonunga muvofiq)

88-savol: Yangi Gvineyaning papuas qabilasi aholisida yaqin qarindoshining o‘lganligiga motam ishorasi sifatida o‘z qo‘l barmoqlaridan birini kesib tashlanganliklarini eshitgansiz.Yigirmanchi asrning 50-yillarigacha papuaslar orasida barcha barmoqlari yo‘q insonlarni ko‘plab topish mumkin edi.(ko‘pgina qarindoshlari o‘lganligi sababli).50-yillardan keyin papuaslar orasida 6-7 ta barmog‘i kesilganlarini uchratishimiz mumkin ediyu lekin barcha barmoqlari yo‘qlari deyarli uchramay qoldi. Bunga sabab nima bo‘lgan edi?

Javob: 50-yy dan keyin papuaslar xristian dinini qabul qila boshladi va tabiiyki cho‘qinish ritualini ijro etish uchun kamida 3 ta barmoq bo‘lishi talab etilardi.

89-savol: Zurab Seriteling Ulug‘ vatan urishiga (1941-45yy) bag‘ishlab qurgan Moskvadagi monumentining balandligi rosa 142 metr chiqadi. Nimaga Seriteli aynan shuncha balandlikni tanlagan?

Javob: Monumentning har 10 sm urushning bir kunini timsoli.

90-savol: Nima uchun vino, shampianlarni uzoq vaqt saqlash uchun tik holatda emas balki yotiq holatda saqlashlarini aniq sababibini ayting?

Javob: yog‘och tiqinlar qurib qoladi va ichiga havo kirib vino buziladi.

91-savol: Bill Xyulett va Deyv Pakkard o‘zlarining elektoritexnika sohasidagi kompaniyalariga asos solishgach, bir masala bo‘yicha qur‘a tashlashgan. Qur‘ada kim yutgan?

Javob: Xyulett

Izoh: Shundan so‘ng kompaniya nomida Xyulett nomi birinchi ishlatiladi

93-savol: Qo‘shiqqa ko‘ra bir rassom bir aktrisanı sevib qoladi va o‘z uyini, kartinalarini sotib, unga atab juda ko‘p miqdorda bir narsa sotib oladi.Endi siz o‘sha rassom nima sotib olganligini aniq qilib ayting?

Javob: Million million pushti atirgul

94-savol: Yoz oylardan birida Moskva yaqinidagi pivo do‘konining tomiga osmondan katta bir jism qulab tushgan.Hozirgi kunda ushbu katta shov-shuvga sabab bo‘lgan jism muzeyda saqlanmoqda.Endi siz ushbu jismni toping?

Javob: Olimpiada 80 ayig‘i.

Izoh: Katta ayiq shaklidagi havo shari osmonga uchirilgan edi

95-savol: U 19 asrda paydo bo‘lgan va 20 asrdan yevropaga tarqalgan.Uning “andalus”, “kreol”, “argentina” kabi turlari mashhur.Yaxshilab o‘ylab uning arabchasini kim mashhur qilganini toping?

Javob: B.Zokirov. (tango)

96-savol: Piterdagi dastlabki ajraluvchi mostlardan biri A.D.Menshikov tomonidan qurilgan bo‘lib,undan o‘tish pullik edi.Piyodalardan 1 tanga, otliqlardan 2 tanga, aravalardan 5 tanga olingan.Eng baland narx bir rubl nimalardan olingan?

Javob: Kemalardan

97-savol: «Argumenti i fakti» gazetasida bir cherepitsa ishlab chiqaruvchi firma reklamasi chiqqan.Ushbu reklamada cherepitsalar surati bilan birgalikda bir mult qaxramonning xam rasmi bor. Qaysi qaxramon?

Javob: Karlson

98-savol: 1888 yili AQShning Jeynsvill maktabi o‘qituvchisi o‘zining ishonchsiz va noqulay ish qurolidan voz kechib, uning yangi turini yaratadi. Endi ushbu insonning familiyasini ayting?

Javob: Parker

99-savol: 1760-y Strasburgda Mari ismli qizcha tug‘iladi.Yoshligidan haykaltaroshlikka qiziqqan Mari, keyinchalik Angliyaga ko‘chib ketadi va u yerda bir mashxur muassaga asos soladi.Endi manga ushbu frantsuz xonimining familiyasini ayting?

Javob: Madam Tyusso (Londagi mashxur muzeyga asos solgan)

100-savol: 1940 y.y.da Shvetsiyada yangi metall qotishmali relsga ega bo‘lgan o‘sha davrda dunyodagi eng tez yurar poezd liniyasi ishga tushadi.Ko‘p o‘tmay bir mashhur inson shunday relslardan 3-4 km. uzunlikdakisiga buyurtma berib, sotib oladi. Yaxshilab o‘ylab ko‘ringda ushbu insonning familiyasini ayting?

Javob: Uold Disney (Disneylend uchun)

[\[Bosh sahifa\]](#) [\[Biz bilan aloqa\]](#) [\[Savol yo'lash\]](#) [\[Bizning manzil\]](#)

Klub ruxsatisiz ushbu savollardan moddiy manfaatlarda foydalanish mumkin emas.

Copyright © ZAKOVAT, 2008.

All Rights Reserved.